

BIR TIZIMLI TILLAR FONETIKASIDAGI AYRIM O‘XSHASH VA FARQLI XUSUSIYATLARGA DOIR

*D.Rahmonova, FarDU magistranti,
Ilmiy rahbar: E.O‘rinboyeva, FarDU katta o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bir tizimli(o‘zbek va turk) tillarining unli va undoshlar tizimi, fonetikasidagi o‘xshash va farqli xususiyatlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: tillar oilasi, bir tizimli tillar, fonetik sath, qisqa unli, cho‘ziq unli, sifat va miqdor o‘zgarishlari, singarmonizm, tanglay garmoniyasi.

SOME SIMILARITIES IN THE PHONETICS OF SINGLE-SYSTEMED LANGUAGES AND WITH DIFFERENT CHARACTERISTICS

Annotation: This article analyzes the vowel and consonant systems of uzbek and Turkish languages, examining their similarities and differences in phonetics.

Key words: language family, monosystemic languages, phonetic level, short vowel, long vowel, quality and quantity changes, sinharmony, palatal harmony.

СХОДСТВА В ФОНЕТИКЕ ОДНОСИСТЕМНЫХ ЯЗЫКОВ И С РАЗЛИЧНЫМИ ХАРАКТЕРИСТИКАМИ

Аннотация: В статье анализируются односистемные языки (узбекский и туретские), система гласных и согласных звуков, сходство и различие в их фонетике.

Ключевые слова: языковые семьи, односистемные языки, фонетический уровень, краткая гласная, изменение суммы и качества, сингармонизм, гармония нёба.

Tillar oilasi – kelib chiqishi jihatidan o‘zaro qarindosh, tuzilishi va ayrim leksik, grammatik xususiyatlariga ko‘ra o‘xshash tillar majmui.

O‘zbek va turk tili ham genetik jihatdan, ham tipologik jihatdan bir-biriga yaqinligi tufayli bir oilaga, ya’ni turkiy tillar oilasiga mansub. Turkiy tillar oilasiga Sibirdan Bolqon yarim oroligacha bir chiziq bo‘ylab cho‘zilgan ulkan geografik hududda tarqalgan o‘zbek, uyg‘ur, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, saxa (yoqut), tuva, xakas, oltoy, karagas, shor, turkman, ozarbayjon, turk, gagauz, tatar, boshqird, chuvash, qo‘miq, no‘g‘ay, qorachoy-bolqor, tofa, chuvash kabi 25 dan ortiq tillar kiradi. Har bir til oilasining boshqa til oilalaridan ajratib turuvchi xususiyatlari mavjud bo‘lgani kabi turkiy tillar oilasi uchun xos bo‘lgan singarmonizm hodisasi, so‘z boshida undoshlarning ketma-ket kela olmasligi, bir bo‘g‘inda undoshlarning qator kelmasligi, gap bo‘laklarining joylashish tartibi kabi xususiyatlar bu tillarni boshqa til oilalaridan farqlab turadi.

N.A.Baskakov turkiy bobo tilni ikki guruhga ajratgan: 1) g‘arbiy turkiy tillar: bulg‘or, o‘g‘uz, qipchoq, quman, saljuqiy, usmonli turk, turkman, chuvash, gagauz, ozarbayjon, qaraim, qumiq

tillari; 2) sharqiy turkiy tillar: o'rxun-enasoy, qadimgi uyg'ur, uyg'ur, qarluq, tatar, boshqird, qozoq, no'g'ay, qoraqalpoq, o'zbek, qirg'iz, oltoy, tuva, xakas, shor, yoqut tillari.¹

Radlov esa to'rt guruhga ajratadi: 1) sharqiy guruh: oltoy, chulum turklari, karagas, xakas, shor, tuva va enasoy turklari tillari; 2) g'arbiy guruh: sibir tatarlari, qirg'iz, qozoq, boshqird, tatar, qoraqalpoq tillari; 3) O'rta Osiyo guruhi: uyg'ur va o'zbek tillari; 4) janubiy guruh: turkman, ozarbayjon, turk tillari.

Bu bo'linishlar xalqlarning geografik hududiga ko'ra, xususiyatlariga ko'ra bo'lib, tillarning ma'lum bir jihatdan farqlanishini ko'rsatadi. Jumladan, o'zbek va turk tillari ham fonetik, leksik, grammatik, sintaktik xususiyatlari jihatidan farqlovchi va ayrim birlashtuvchi belgilarga ega. Masalan:

Fonetik sathda o'zbek va turk tilining farqlovchi va birlashtiruvchi tomonlari ulardagi unlilar sistemasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunki hozirgi turkiy tillarda unli va undosh tovushlar miqdori bir xil emas. Xususan, o'zbek tilida unlilar 6 ta, undosh tovushlar 24 ta bo'lsa, turk tilida unli tovushlar 8 ta, undosh tovushlar esa 21 tani tashkil etadi.

V.V.Radlov fikricha, umumturkiy bobo til davrida sakkizta unli mavjud bo'lgan. Turkiy tillarning aksariyatida unli fonemalar 8 ta: Qisqa unlilar: a, ə, o, ɵ, u, ü, i, ı. Cho'ziq unlilar a: ə: o: ɵ: u: ü: ı: i: Turk tilida 8 ta unli saqlanib qolgan, o'zbek tilida esa 6 ta.

O'zbek tilida unlilar tasnifi uch jihatdan amalga oshiriladi:

1. Lablarning ishtirokiga ko'ra: lablangan: o, u, o'; lablanmagan: a, e, i.
2. Tilning gorizontalar harakatiga ko'ra: old qator unlilar: a, e, i; orqa qator unlilar: o', u, o.
3. Tilning vertikal harakatiga ko'ra yoki og'izning ochilish darajasiga ko'ra: yuqori tor unlilar: i, u; o'rta keng unlilar; e, o'; quyi keng unlilar: a, o

Turk tilida ham unlilar uch tomonlama tasnif qilinadi:

1. Tilning gorizontalar harakatiga ko'ra: orqa qator (qalin) unlilar: a, ı, o, u; old qator (yumshoq) unlilar: e, i, ɵ, ü.
2. Lablarning ishtirokiga ko'ra: lablangan unlilar: o, ɵ, u, ü; lablanmagan unlilar: a, e, i, ı.
3. Og'izning ochilish darajasiga ko'ra: keng unlilar: a, e, o, ɵ; tor unlilar: u, ü, ı, i.

Ko'rinadiki, turk va o'zbek tillarida unlilar tasnifi bir xil, ya'ni uch jihatdan tasniflanmoqda. Ammo unlilarning sifat va miqdor o'zgarishlariga ko'ra farq mavjud. Masalan, i unli tovushini oladigan bo'lsak, o'zbek tilida yumshoq yoki qattiq unlini ajratib bo'lmaydi. Har ikki holatda ham i harfi bilan belgilanadi. Ammo turk tilida yumshoq (yumshak) unli va qattiq (kalin) unli ajratiladi. Birining o'rnida boshqasi ishlatilmaydi. Bu hatto so'z ma'nosining o'zgarib ketishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Masalan, dıř va dıř so'zlari boshqa-boshqa ma'no anglatadi. Dıř so'zi "tashqi, sirt" ma'nolarida keladi: *Hafta sonunda řehrın dıřına ıkıyırız.*

Dıř so'zi inson a'zosi y'ni tishi ma'nosida keladi: *Insanda otuz iki tane dıř vardır.*

On va ön so'zlarida ham shunday. On – raqam ma'nosida; ön – oldinda, oldida ma'nolarida keladi: *Ben, Anafartalarda Mustafa Kemalın bulunduęu en ön siperlerde de kurşun attım. (A.Gündüz)*

Turkiy tillarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri sifatida singarmonizm hodisasi e'tirof etiladi. Singarmonizm hodisasi unlilar garmoniyasi deb ham atalib, muayyan so'z shaklining (ham asos, ham affikslarning) barcha unlilari (artikulyatsiya) jihatdan bir turli: old yo orqa qatorga mansub (tanglay garmoniyasi) yoki lablangan-lablanmagan (lab garmoniyasi) bo'ladi. Tanglay garmoniyasi qonuniga muvofiq, so'zning boshida (o'zakda) til oldi unlisi kelsa, so'z o'rtasidagi va oxiridagi unlilar ham til

¹ Баскаков Н.А. Тюркские языки. – Москва, 1960.

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-1

oldi unlisi bo'ldi. Til orqa unlisi bo'lsa ham shunga muvofiq bo'ldi. Lekin hozirgi o'zbek adabiy tilida singarmonizm hodisasi sezilmas darajaga kelib qolgan. Bu hodisa ayrim so'zlar tarkibidagina saqlangan: qipchoq va o'g'uz dialektlariga mansub o'zbek shevalarida saqlangan: olgan (adabiy tilda) – alg'an (qipchoq lahjasi shevalarida), borgan (adabiy tilda) – barg'an (qipchoq lahjasi shevalarida), kelgan (adabiy tilda) kelgan (qipchoq lahjasi shevalarida), o'ttiz (adabiy tilda) – o'ttuz (qipchoq lahjasi shevalarida), uyimga (adabiy tilda) – uyuma (o'g'iz lahjasi shevalarida) kabi. O'zbek adabiy tilida singarmonizmning buzilishi, birinchi navbatda, o'zbek tilining ichki taraqqiyoti asosida yuz berdi. Buni boshqa turkiy tillardagi singarmonizm qonuniyatiga bo'ysunmaydigan affikslar, singarmonistik variantlarning mavjudligi ham tasdiqlaydi. O'zbek adabiy tilidagi singarmonizmning kuchsizlanishida sug'd, xorazmiy, saq va fors-tojik kabi sharqiy eroniy tillar hamda arab tilining ta'siri katta bo'ldi. Bu tillar ta'siri natijasida turkiy til (eski o'zbek tili) fonetikasi, leksikasi, grammatikasida ayrim o'zgarishlar yuzaga keldi.²

Turk tilida esa singarmonizm saqlanib qolgan. Turk tilidagi so'zlarda o'zakda til oldi unlisi kelsa, qo'shimcha ham shunga muvofiq qo'shiladi, aksincha, til orqa unlisi kelsa, qo'shimchadagi unli ham til orqa unlisi bo'ldi: *Zemin katta küçücük, alçak tavanlı bir dairede doğup büyüdüm. Annemle babam, her akşam, açıldığında odalarını neredeyse duvardan duvara kaplayan bir kanepede yatarlardı.* (*Aşk ve Karanlık. Asmos Oz.*) küçü+cük, tavan+lı, daire+de büyü+düm, oda+lar+ı+nı. Qo'shimchalar qo'shilishini kuzatadigan bo'lsak, o'zakda old qator unli bo'lsa qo'shimchada ham old qator, orqa qator unli bo'lsa qo'shimchada ham orqa qator unli kelmoqda.

O'zbek tilida ushbu fonetik hodisaning kuchsizlanishining sababi o'rta asrlarda fors-tojik va arab tillari ta'siri natijasida o unlisining kirib kelishi bilan bog'lanadi va bu holat o'zbek tilining boshqa turkiy tillar bilan fonetik jihatdan o'zaro farqlanishiga olib kelgan.

ADABIYOTLAR:

1. Баскаков Н.А. Тюркские языки. – Москва, 1960.
2. Dadaboyev H.A., Xolmanova Z.T. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. – Toshkent.: Tafakkur Bo'stoni, 2015.
3. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent.: Yangi asr avlodi, 2009.

² Dadaboyev H.A., Xolmanova Z.T. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. – Toshkent: "Tafakkur Bo'stoni", 2015.